

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Toshkent shahar doimiy aholisi soni 2019 yil 1 oktabr holatiga 2554,9 ming kishini tashkil etib, 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 44,9 ming kishiga yoki 1,8 %ga o'sgan.

E'tibor bering:  
2019 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **44,9 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **37,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **11,7 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'lmlarida **14,9 mingta nikoh** va **3,4 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Toshkent shahar aholisining umumiyo'sishi (2019 yil yanvar-sentabr)

**Tirik tug'ilganlar**  
**37,3 ming bola**



Aholining umumiyo'sishi  
**44,9 ming kishi**


**Vafot etganlar**  
**11,7 ming kishi**

**Ko'chib kelganlar**  
**25,2 ming kishi**




**Ko'chib ketganlar**  
**5,9 ming kishi**

**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi**  
 (2019 yil 1 sentabr holatiga, shahar jami aholisiga nisbatan, %da)




Shahar hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 sentabr holatiga eng ko'p aholi soni Olmazor tumanida 363,7 ming kishini (shahar aholisi sonidagi ulushi 14,2 %ni) va Shayxontoxur tumanida 340,1 ming kishini (13,3 %), aksincha eng kam aholi soni Bektemir tumanida 33,6 ming kishini (1,3 %) va Yakkasaroy tumanida 119,1 ming kishi (4,7 %) tashkil etdi.



**Tumanlar kesimida doimiy aholi soni  
(2019 yil 1 sentabr holatiga, ming kishida)**



**Toshkent shahar aholi soni 2019 yil 1 sentabr holatiga 2554,9 ming kishi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 1,8 foizga ko'paydi.**



Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Sergeli tumanida 5,8 %ga, Yashnobod tumanida 4,1 %ga, Uchtepa tumanida 2,8 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Bektemir tumanida -0,3 % ni, Yakkasaroy tumanida 0,4 %ni hamda Mirzo Ulug'bek tumanida 1,3 ni % tashkil etdi.

**Toshkent shahri aholi sonining jinsi bo'yicha taqsimlanishi**  
 (2019 yil 1 sentabr holatiga, ming kishida)



**Ma'lumot uchun**

*Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Toshkent shahri bo'yicha ayollar soni 1305,5 ming kishi.  
 Erkaklar soni esa 1249,4 ming kishini tashkil qildi.  
 Ko'rsatkichlardan shuni kuzatishimiz mumkinki,  
 ayollar soni 2.2% ga erkaklar sonidan ko'proq.*

	Doimiy aholi soni (ming kishi)	shundan:			
		erkak (ming kishi)	ayol (ming kishi)	erkak (foizda)	ayol (foizda)
<b>Toshkent shahar</b>	<b>2 554,9</b>	<b>1 249,4</b>	<b>1 305,5</b>	<b>48,9</b>	<b>51,1</b>
tumanlar:					
Uchtepa	272,0	135,7	136,3	49,9	50,1
Bektemir	33,6	15,2	18,4	45,2	54,8
Yunusobod	337,8	164,5	173,3	48,7	51,3
Mirzo Ulug'bek	273,8	135,6	138,2	49,5	50,5
Mirobod	137,9	66,7	71,2	48,4	51,6
Shayxontoxur	340,1	165,7	174,4	48,7	51,3
Olmazor	363,7	175,1	188,6	48,1	51,9
Sirg'ali	190,5	94,0	96,5	49,3	50,7
Yakkasaroy	119,1	57,7	61,4	48,4	51,6
Yashnobod	240,1	118,9	121,2	49,5	50,5
Chilonzor	246,3	120,3	126,0	48,8	51,2

## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 37,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 19,7 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,7 promillega ko'paygan (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 18,0 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Uchtepa tumanida (20,9 promilledan 23,3 promillega) Yunusobod (17,8 promilledan 19,7 promillega) Yashnobod tumanida (16,8 promilledan 18,2 promillega) tumanlarida sezilarli o'sganligi kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yisi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




Qiz bolalar:  
16,9  
ming nafar




O'g'il bo-lalar:  
20,4

### Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-sentabr

	2018y.	2019y.	O'sish surati foizda
<b>Toshkent shahar tumanlar:</b>			
Uchtepa	4 129	4 692	113,6
Bektemir	646	748	115,8
Yunusobod	4 362	4 920	112,8
Mirzo Ulug'bek	2 837	3 212	113,2
Mirobod	1 553	1 679	108,1
Shayxontoxur	4 851	5 176	106,7
Olmazor	5 159	5 843	113,3
Sergeli	2 886	3 274	113,4
Yakkasaroy	1 150	1 188	103,3
Yashnobod	2 876	3 213	111,7
Chilonzor	2 978	3 366	113,0



**Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi  
yanvar-sentabr**



## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 11,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamaydi (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 6,7 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Mirobod (7,8 promilledan 7,0 promillega), Chilonzor (6,7 promilledan 6,1 promillega), Sergeli (7,2 promilledan 6,8 promillega), Uchtepa (6,7 promilledan 6,2 promillega) va Olmazor (5,7 promilledan 5,4 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Vafot etganlar




6,0 ming  
kishi

5,7 ming  
kishi


### Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni, kishi yanvar-sentabr

	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati foizda
<b>Toshkent shahar</b>	11 929	11 723	98,3
tumanlar:			
Uchtepa	1 328	1 256	94,6
Bektemir	186	186	100,0
Yunusobod	1 519	1 569	103,3
Mirzo Ulug'bek	1461	1525	104,4
Mirobod	788	720	91,4
Shayxontoxur	1 156	1 159	100,3
Olmazor	1 502	1 447	96,3
Sergeli	958	945	98,6
Yakkasaroy	464	454	97,8
Yashnobod	1 355	1 337	98,7
Chilonzor	1 212	1 125	92,8

**Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni, kishi  
yanvar-sentabr**



**Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlarning o'tgan yilga  
nisbatan o'sish surati (foizda)**




## Demografik holat

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,3 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 14,8 %i o'simtalardan, 5,2 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,3 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,7 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 7,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,5 ming nafarni tashkil etib, ularning 59,9 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 20,9 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 9,9 %i tug'ma anomaliyalardan, 5,3 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan va 4,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2018 yil yanvar-sentabr

**Tabiiy o'sish.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 25,6 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 4,1 ming kishiga (2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 21,5 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
25,6 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 14,9 ming nikohlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,9 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori osish sur'atlari Yakkasaroy (131,0%), Chilonzor (122,7%), Yunusobod (108,2%), tumanlarda tog'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,8 promilleni tashkil etdi.



Ajrimlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Chilonzor (122,0%), Mirzo Ulug'bek (121,0%), Uchtepa (119,2%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik  
(yanvar-sentabr)**



	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish surati foizda	2018 y.	2019 y.	O'sish surati foizda
<b>Toshkent shahri tumanlar:</b>						
Uchtepa	1 680	1 745	103,9	318	379	119,2
Bektemir	289	263	91,0	64	73	114,1
Yunusobod	1 921	2 079	108,2	392	418	106,6
Mirzo Ulug'bek	1 275	1 285	100,8	338	409	121,0
Mirobod	711	702	98,7	214	221	103,3
Shayxontoxur	1 875	1 885	100,5	299	324	108,4
Olmazor	1 936	1 911	98,7	369	386	104,6
Sirg'ali	1 376	1 259	91,5	351	332	94,6
Yakkasaroy	564	739	131,0	126	149	118,3
Yashnobod	1 351	1 338	99,0	355	345	97,2
Chilonzor	1 373	1 685	122,7	305	372	122,0

**Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik  
(yanvar-sentabr)**




**Migratsiya.** 2019 yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahar bo'yicha ko'chib kelganlar soni 25,2 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 5,9 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi 19,3 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida 10,8 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar-sentabr	2019 yil yanvar-sentabr
<b>Ko'chib kelganlar</b>	18,9	25,2
<b>Ko'chib ketganlar</b>	8,1	5,9
<b>Migratsiya saldosi</b>	10,8	19,3



### Toshkent shahri tumanlar kesimida aholi migratsiyasi (ming kishi)



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yashnobod (4,7 ming kishi), Chilonzor (2,5 ming kishi), Sergeli (2,5 ming kishi) hamda Mirzo Ulug'bek (2,5 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.